

ABDUVALI QUTBIDDIN IJODIDA MODERNISTIK TASVIRLAR

Otaqulova Dildora Oybek qizi

TerDU o'zbek adabiyotshunosligi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10779312>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi o'zbek she'riyatida modernizm yo'nalishida ijod qilgan Abduvali Qutbiddin hayoti va ijodi tadqiq etilgan. Shoirning she'rlaridagi modern yo'nalishlaridagi she'rlari tahlil etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: modernizm, tasvir, ramz, metafora, badiiylik, obraz, lirik qahramon.

MODERNIST IMAGES IN THE CREATION OF ABDUVALI QUTBIDDIN

Abstract. In this article, the life and work of Abduvali Qutbiddin, who created modernism in modern Uzbek poetry, is studied. The poems of the poet in the modern direction of his poems are analyzed.

Key words and phrases: modernism, image, symbol, metaphor, artistry, image, lyrical hero.

МОДЕРНИСТСКИЕ ОБРАЗЫ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУВАЛИ КУТБИДДИНА

Аннотация. В данной статье исследуется жизнь и творчество Абдували Кутбиддина, создавшего модернизм в современной узбекской поэзии. Анализируются стихи поэта в современном направлении его поэзии.

Ключевые слова и фразы: модернизм, образ, символ, метафора, художественность, образ, лирический герой.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyati yangicha uslub, yangicha obrazlar, lirik mening kechinmalariga boy she'riyat sanaladi. "XX asr boshlari o'zbek adabiyotida yangi davrni berdi.

O'zbek she'riyatining yulduzi Cho'lpon haqiqatan ham o'zbek she'riyatida buyuk ingilob qildi"[1.576]. Ayni modernizm kurtaklari uning ijodi bilan bog'liqdir.

Abduvali Qutbiddin o'zbek she'riyatida yorqin iz qoldirgan shoirdir. U har bir she'rida, yangi ranglar, ohanglar izlab topishga intiladi. Shoir kechinmalarini ilg'ash qiyindek, tasavvuringizga bu ingichka holatlar bir-biri bilan uzviy emasdek tuyulishi mumkin. Favqulodda o'xshatishlar, kinoyalar, istioralar...o'qib ajablanasiz, bu she'rlar boshqalarning she'rlariga sira o'xshamaydi. Hatto bir qaraganda "qovushmagandek" bo'ladi. Bu shoirning ilk kitobi dastlabki sahifalaridagi Vatan haqidagi she'rida namoyon bo'ladi. O'z tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan tuprog'idan olisda yurgan lirik qahramon bahorning ilk kunlarida ona - zaminga oyoq qo'yadi.

U ona qishlog'ini juda sog'ingan edi. Uning diydoridan bahramand bo'layotib butun vujudini ajib bir nur chulg'agandek ko'zlari charaqlab qalbi yayrab ketgandek bo'ldi. Nogahon u vatanning ko'z qorachig'idek aziz ekanligini his etdi.

Nurim, qorachiqqinam

Yorim, onajonginam...[1]

Lirik qahramon atrofga boqib tabiatning tengsiz rassomligidan hayratda qoladi. Bahor qishloqqa o'zining ilk yomg'irlarini sovg'a qilgan va bu bilan u yanada iforli, shukuhli qiyofa kasb etgandi. Shoir ham Darg'omga yuragining shabnamdek toza yomg'iri – naysonni hadya etadi

Bahorning ilk yomg'irlaridan
Ko'ngli toshib ketganday Darg'om
To'kay dedim men ham bag'rimni
Yuragimning yomg'iri - Nayson.[1]

A.Qutbiddin siyqa qofiyabozlik, quruq va'z, soxta ba landparvozliklardan qochadi. U o'y kechinmalarini oshkora bayon etmaydi, she'rlarida g'oya va ma'no "mana men" deb bo'y ko'rsatmaydi. Balki bu asarlar she'rxonni o'ylashga, mushohada yuritishga majbur qiladi.

O'zining rangin olamiga oshno etadi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldosh shoirning lirik qahramoni haqida shunday yozadi:"A.Qutbiddinning lirik qahramoni – 80 yillar farzandini turg'unlik yillari tarbiyalab, hayotga yo'l ko'rsatgan edi. 80 yillar avlodi oldida mashaqqatli vazifa – juda ko'p yolg'on aralashgan kechagi va bugungi hayotdan insoniy haqiqatni zarra-zarralab terib Buyuk Haqiqatning yaxlit vujudini yaratish zarur edi. Bunga esa buyuk va sohir badiiyat qodir, xolos.

Faqat ugina sohir aqlidan ilgarilab ketishi, tarix sahifalari bo'ylab sochilib ketgan hayotni faqatgina badiiy obrazlar bir nuqtaga jamlab, ko'ngil mulkiga aylantirishi mumkin".

She'riyat - ko'ngil mulki, yurak, sog'inch farzandi. U sog'inchdan yaraladi. Ko'ngil esa hamisha mehrga, sevgiga tashna. Shoirning lirik qahramoni yuragida ham ishq – tashnalikdir. U qalbini o'zgalarga, uni yaxshi ko'rgan odamga hadya qiladi, "dilini sevgiga sotadi".

"Bir qiz olib ketdi uni uzoqqa
U qizning qalbida kunday oqadi,
U baxtdan ketadi endi semirib,
Qiz uni muhabbat bilan boqadi".[1]

Inson tabiati ruhiyati bilan tirik. Ruhiyatidan ayrilgan odam faqat jism bilan yolg'iz qoladi. Ba'zan yuraging dardga, iztirobga to'lgan vaqtlarda yolg'izlikni qo'msab qolasan.

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim [] aytganidek: "yolg'izlik yarashar faqat xudoga".

Yolg'izlik, telbalik bir orol...
Mushtday kabutarga bir armon.
O'ylaysan dunyoda zo'r qirol –
Nahotki Robinzon, Robinzon.[1]

Robinzon kimsasiz orolda taqdir hukmi bilan yigirma yetti yil yashagan, lekin hech qachon insonlik qiyofasini yo'qotmagan. Ammo lirik qahramon Robinzon taqdiriga buysunolmaydi.

Yolg'izlik, telbalik sho'r taqdir.
Mushtday kabutarga bir armon.
Sen sog'inib kelgan oroldan
Ketib qolgan ekan Robinzon...[1]

Yolg'izlik tushunchasi shoirning "Sevilmagani ayol" she'rida o'ziga xos yo'sinda ifodalanadi. Aslida bu dunyo g'alati. Sevsangu sevilmasang? Sevilib sevmasang?

Kunlar yozingizni tark etib qo'ydi,
Chiroq yog'dusida yuzingiz o'chiq.
Mo'riday seruchqun umid yopildi,
Tutun yo'q

Kulga aylanibdi xushbo‘y isiriq...[1]

Shoir she‘rda ohori to‘kilmagan tashbih, metafora va oksimoron birikmalarni qo‘llaydi. Masalan;”ko‘zingiz yulduzsiz qolgan munajjim”, “dovul muzli toshlar yumalatadi”kabi. She‘r qanday sokin manzara bilan boshlangan bo‘lsa, shunday sokin holatda yakun topadi.

Kunlar yozingizni tark etib qo‘ydi,
Yolg‘iz alam qoldi siz bilan achchiq.
Lablar xo‘rsindiyo, asta bekildi
Siz yolg‘iz.

Yo‘q, yo‘q, ozgina dud hamda isiriq...[1]

Bahor yomg‘irining shivalab yog‘ishi ko‘ngilga sokin bir qo‘shiqdek quyuladi. Go‘dak qalbiga mehr baxsh etgan tuyg‘ular ona allasi orqali qo‘shiq bo‘lib ko‘ngildan joy oladi. “Nayson”da ham bir qancha qo‘shiqlar o‘rin olgan: “Qo‘shiq haqida qo‘shiq”, “O‘tinch haqida qo‘shiq”, “Umid haqida qo‘shiq”, “Eng ko‘hna qo‘shiq”, “Visol haqida qo‘shiq”, “O‘layotgan hindu qo‘shig‘i”, “Hijron haqida qo‘shiq”. Shoirning dunyoda yagona oshig‘i – yurak. Qo‘shiq ham yurakdan sizilib chiqadi.

Kuylashdan tinarmi ravon, ohangboz
Dunyoda yagona oshig‘im – yurak.
Qarg‘alar yeyarmi bulbullar tilin,
Bo‘larmi daraxtning barglari g‘ijjak.[1]

Shoirning “O‘tinch haqida qo‘shiq” she‘ri xalq baxshisi Shoberdi baxshi Boltaevga bag‘ishlangan. “Alpomish” ohanglaridan kelib chiqilgan ushbu she‘rni o‘qir ekanmiz shoirning mahorat sirlaridan voqif bo‘lamiz.

Alpomish ko‘ylagi – yoyilgan osmon.
Barchinning qoshlari – tortilgan kamon.
Ko‘zini yoy qilib otdi qay tomon,
Ayt senga tegdimi, do‘mbira-do‘mbir,
Torlaring tortilsin zorlatib kuldir.[1]

O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodida ham “xalqimizning uzoq o‘tmish tarixini aks ettirgan “Alpomish” eposining o‘rni katta. Ushbu doston ta‘sirida yaratilgan mashhur “Baxshiyona” turkumida doston qahramonlari – Alpomish va Barchin obrazlari stilizatsiyasi kuzatiladi”[6:69]. Ushbu parchada biz A. Qutbiddin ijodida ayni yuqoridgi qahramonlar nomini ko‘ramiz. Shoir tabiat va inson munosabatini nihoyatda betakror istioraviy tasvirlar “Alpomish ko‘ylagi”, “Barchinning qoshlari – tortilgan kamon”, “do‘mbira-do‘mbir” kabi tasvirlarda aks ettirgan. she‘riyatida inson va tabiat, makon va zamon, hayot va o‘lim, visol va hijron tushunchalari bir-biri bilan qo‘shilib, yo‘g‘rilib ketgan. Hijron qancha uzoq bo‘lsa visol shuncha go‘zal bo‘ladi.

Hijron qish tuniday cho‘zilganida,
Kunlar ko‘k bag‘ridan uzilganida,
Yoshim piyoladan suzilganida,
Kapalak qonini topinglar menga.[1]

Lirik qahramon nazarida hijronning cheki yo‘q, yo‘llari uzun, shuning uchun u “kapalak qonini so‘raydi”. Kapalakning esa qoni yo‘q. Bu – ramziy, majoziy obraz. Lirik “men” hayotdan o‘ziga hamdard odam izlaydi. Lekin hijron dardida iztirob chekayotgan lirik qahramonning orzusi o‘zgarmas armon bo‘lib qolaveradi. Shoir she‘rlarida davr jarayonlari, inson o‘y-kechinmalari, idrok va g‘oyalari, his-tuyg‘ulari va xayollari haqidagi qarashlar aks etgan [7:84] ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytganda, shoir Abduvali Qutbiddin o‘zbek she‘riyatining “...munosib izdoshi bo‘lib, so‘zdan durdona asarlar yozadiganlar katta iste‘dod egasi bo‘ldi”[8:1034] oddiy she‘riyati ramziy ifodalarga, kutilmagan holatlarga, tasavvur lahzalariga boyligi bilan milliy she‘riyatimizda modernizmni namoyon etadi.

REFERENCES

1. Abduvali Qutbiddin. Nayson. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at, – 1988.
2. Yuldashev, N.T. (2019). Tradition and novelty in Chulpan poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(80), p.576.
3. [Sultonqulova, F \(2020\). “METAPHORICAL IMAGES IN THE POETRY OF OSMAN AZIM”, *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. ICIPPS, p. 4, Jun. 2020. 201-b.](#)
4. [Sultonqulova, F. \(2020\). Metaphorical images in Osman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 \(84\), 537-539. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>.](#)
5. [Sultonqulova, F. \(2024\). TROPES IN THE POEMS OF USMON AZIM **International Bulletin of Applied Sciences and Technology**. Volume 4, Issue 2. Volume 4, Issue 2. 186-189 B. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10670866>](#)
6. [Sultonqulova, F. \(2023\). *Yozma adabiyotda Barchin timsoli / Tarih Sahnesinde Türk Dünyası Kadını Uluslararası Sempozyumu 22-23 Haziran 2023, İzmir. 69-72 betlar. <https://tdae.ege.edu.tr/a>*](#)
7. [TO‘LIBOYEV, S. \(2022\). *Mustaqillik yillarida o‘zbek-turk adabiyot aloqalari ./Filologik tadqiqotlar Til, adabiyot, ta‘lim. 2023, 4. – 84-85.*](#)
8. Sayyora Raimova Zaitovna. Traditions and contemporary uzbek poetry. // International Bulletin of applied science and technology *IBAST // ISSN: 2750-3402. Voleme 3, Isseu 5, may // b. 486.*
9. [Yulduz Hayitova Some strkes to the poem of the Shodmonkul Salom. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 \(102\), 1033-1036.](#)